

## UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI KELAJAGI

**Uteniyazov Maxsud Baxitbay o‘g‘li**

Nukus shahri Xalq ta’lim bo‘limiga qarashli

39-sonli umum ta’lim maktabi informatika fani o‘qituvchisi

E-mail: [maxsuduteniyazov@gmail.com](mailto:maxsuduteniyazov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Informatika fani asoslari, rivojlanish tarixi va kelajagi keltirib o‘tilgan.Va o‘quvchilarni bu fanga qiziqtirish va o‘rgatish yo‘llari aytib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Informatika, pedagogik amaliyot, kompyuter, dasturlash.

**Annotation:** Fundamentals of computer science, history and future of development are given. And there are given ways to engage and teach students in this science.

**Key words:** informatics, pedagogical practice, computer, programming.

Informatika fanidan pedagogik amaliyot informatikadan uslubiy jihatdan malakali o‘qituvchini tayyorlashda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. U oliy o‘quv yurtida pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, ijtimoiy va maxsus fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlashga va boyitishga imkoniyat yaratadi, yosh o‘qituvchilarga informatika fanini o‘qitishning o‘quv va uslubiy qo‘llanmalardan, dasturiy ta’mindan, kompyuter sinflaridan foydalanish xususiyatlari bilan tanishishga imkon beradi. Pedagogik amaliyotning asosiy vazifasi: hozirgi zamon informatika fanini o‘qituvchisining ko‘nikma va malakalarini egallashdir. Pedagogik amaliyotni o‘tkazish vaqt o‘quv rejasi bilan aniqlanadi. Pedagogik amaliyot darslarini, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni o‘tkazish va tayyorlashda talabalar mustaqil ishi faoliyatining doimiy o‘sib borish prinsipi asosida olib boriladi. Respublikamizda, yosh avlodning o‘z faoliyatini rejalashtirishi, qo‘yilgan masalani yechishga zarur bo‘lgan

axborot topa olishi, o‘rganilayotgan ob’ekt yoki jarayonni informatsion modelini qura olishi va yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishi kabi malakalarga ega bo‘lishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

O‘qitish shakli va usuli yosh o‘quvchilarining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir tomondan o‘quvchining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularga zamonaviy kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg‘un ko‘rinishda berishdir.

Informatika fanining yoshlik darajasidagi dolzarblik jihatlari quyidagilarda akslanadi:

- O‘quvchilarda axborotlarni qayta ishlash jarayonida fikrlash tartibotlarini, jumladan, mantiqiy va abstrakt fikrlashni shakllantirish.
- Kompyuterdan o‘quv vositasi sifatida foydalanishni ta’minalash maqsadida, uning yordamida axborot ustida amaliy ishlar olib borish, zamonaviy dasturiy ta’milot bilan tanishish.
- Kompyuterdan foydalanish ko‘nikmasini shakillantirish o‘quvchilarda uni o‘rganilayotgan jarayonda hisoblash, tasvirlash, tahrirlash ishlarini bajarishda vosita sifatida qo’llash tajribasiga ega bo‘ladilar.
- Yoshlarda turli o‘quv kurslarida olayotgan axborot va ma’lumotlarni kompleks ravishda o‘rganish hamda ularning uzviyligini ta’minalash ko‘nikmasini shakillantiradi.

Kompyuter o‘quvchilarining ijodiy va abstrakt fikrlash darajasini yaxshiroq tushunish, o‘z navbatida keng va chuqur rivojlantirish imkonini beradi. Ma’lumki, bunday fikrlash uyg‘unligi matematika va boshqa fanlarni o‘zlashtirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quv-metodik ta’milot sohasida informatika o‘qitish metodikasi o‘z oldiga o‘quvchilar uchun qiziqarli darsliklar va o‘quv qo’llanmalarini, o‘qituvchilar uchun esa uslubiy ishlanmalarni yaratishni maqsad qilib qo‘yadi.

O‘quv-metodik ta’minot o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi. Bunda asosiy o‘rin darslik va o‘quv qo‘llanmalariga ajratilgan. Qolgan o‘quv-metodik ta’minot asosiy darslik bilan yaqindan bog‘langan bo‘lib, darslikdagi g‘oyalarni tushuntirish va rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

O‘quv-metodik ta’minot tarkibiga davriy nashrlardagi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim va xalq ta’limi vazirliklari nashrlaridagi uslubiy materiallarni va me’yoriy hujjatlarni kiritish mumkin.

O‘quv-metodik ta’minotning hozirgi davrdagi muhim bir bo‘lagi bu, elektron o‘quv- metodik materiallardir.

Informatika fanning asosiy maqsadi – o‘sib kelayotgan avlodni kompyuter yordamida mustaqil fikrlashga, tasavvurini rivojlantirishga va o‘zining ijodiy rejalarini hayotda tadbiq etishga o‘rgatish.

Informatika - bu umumta’lim fanidir va unga tizimli nuqtai nazardan qarash kerak, bu o‘rta ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalari bilan belgilanadi. Informatikani fan sifatida qabul qilinishining qiyinchilik tomoni shundaki undagi masalalar fizika, matematika, astronomiya fanlariga ham tegishlidir va informatika fanlararo aloqadorlikka ega. Bugungi kunda bolalar faqatgina kompyuter mavjudligini bilish bilan cheklanib qolmasliklari kerak, u haqida faqatgina tasavvurga ega bo‘lmay, balki u erkin ishlashlari, ushbu texnikani qo‘llashni bilishlari kerak. Informatika - bu ob’ektlar yoki jarayonlar haqida emas, balki ularni avtomatlashtirish, yaratish va faoliyatining usullari, vositalari va texnologiyalari haqidadir. Bu fan nafaqat uning chuqur o‘rganilishini, balki o‘z bilimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni amaliy qo‘llay olishni hamda olingan bilimlarni optimallashtirishni ta’minlaydi. Informatika darslarida dunyoni tizimli qabul qilish, tabiatdagi va ijtimoiy sohalardagi xodisalarni umumiylaroqadorligini isloh qilish tasavvurlari rivojlanadi. Uning darajasi asosan axborotni tezda qayta ishslash va unga asoslanadigan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi, bu o‘quvchilar uchun qo‘sishimcha imkoniyatlar talab qiladi. O‘qituvchilardan esa barcha yangi usullar va ta’lim vositalaridan foydalanishni.

Maktab informatika fanining mazmuni muayyan darajada fanning rivojlanish darajasiga va jamiyat talablariga javob berishi kerak. Xisoblash texnikasining rivojlanishi, birinchi navbatda shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta'minotining tez suratlarda yangilanishi inson faoliyatining barcha sohalariga tarqalishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida informatika fanini bolalarga mukammal darajada etkazib bera oladigan, yuqori sifatli axborot texnologiyalari bilan o'qitishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash zarurligini ko'rsatmoqda. Yangi kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi, shuningdek, informatika fanlari ta'limi doirasida ta'lim mavzularining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Xulosa qilib aytganda:**

Kompyuter texnologiyalari shu darajada tez rivojlanmoqdaki ta'lim qanchalik harakat qilmasin undan bir qadam orqada qoladi. Xususan, ACM va Compyuter Science kabi qo'mitalarning yakuniy xulosalariga ko'ra informatika fanini o'qitishda quyidagi mavzular ahamiyatli deb topilgan va bunda so'nggi yillarda amalga oshirilgan texnik o'zgarishlar xisobga olingan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Semakin I.G. Computer science. Basic course. 7-9 grades / I. G. Semakin et al. - 2nd ed., Rev. and add. - M.: BINOM. Knowledge Laboratory, 2004.
2. Bauer FL, Gooz G. Informatics. Introductory course: Per. with him. / Ed. A.P. Ershova. - M.: Mir, 1976.
3. Dorodnitsyn AA Informatics: subject and tasks // Cybernetics. Formation of informatics. - M.: Nauka, 1986.
4. Ershov A. P., Zvenigorodsky G. A., Pervin Yu.A. School informatics (concepts, state, prospects). - Novosibirsk, Computing Center SO AN SSSR, 1979